

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 283-sahifa.
2026-yil, sentabr.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakiylashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI	
Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....	133
IKROMOVA IRODA	
Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....	139
AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI	
The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....	153
SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA	
Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....	165
АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА	
Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....	175
KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....	193
UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI	
Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....	204
KADIROVA LAZOKAT YUREVNA	
Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....	212
BAXSHULLOYEV FERUZBEK	
The economics of digital water management: a critical review.....	226
TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI	
Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....	236
RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT UBAYDULLAYEVNA	
Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....	244
XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI	
O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari.....	251
ABDUSHEROZOVA MADINA SODIQJON QIZI	
Agrologistika korxonalarini rivojlantirish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish.....	258
ZARIKEYEVA MIYASAR MARATOVNA	
Ekonometrik modellashtirishda endogenlik muammosi: nazariy yondashuvlar va zamonaviy baholash usullari.....	264
KODIROVA GAVHAROI QUTBIDINOVNA	
Sanoat korxonalarining tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlari.....	276





DJURAYEVA RUXSORA NEMATILLOYEVNA

Qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta'minlash
yo'llari (Buxoro viloyati misolida).....283





QISHLOQ JOYLARIDA AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI YAXSHILASH VA BANDLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

DJURAYEVA RUXSORA NEMATILLOYEVNA

Buxoro davlat universiteti,

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

E-mail: ruxsoradjurayeva3070@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyati misolida qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi qishloq aholisining bandlik va daromad manbalarini shakllantirish holatini baholash hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali yo'nalishlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda statistik-iqtisodiy, dinamik va qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Tahlil jarayonida qishloq hududlarida barqaror bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilib, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xizmatlar sohasini kengaytirish, kasbiy ko'nikmalarni mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda yangi daromad manbalarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq hududlari, aholi farovonligi, bandlik, aholi daromadlari, mehnat bozori, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, xizmatlar sohasi, Buxoro viloyati.

Аннотация. В данной статье на примере Бухарской области рассматриваются ключевые направления повышения благосостояния сельского населения и обеспечения занятости. Исследование направлено на оценку текущего состояния занятости и формирования доходов среди сельского населения и выявление эффективных мер по повышению их уровня жизни. В исследовании использовались статистико-экономический, динамический и сравнительный методы анализа, а также системный подход. В исследовании рассматриваются основные факторы, влияющие на устойчивую занятость и рост доходов в сельской местности, и предлагаются меры по развитию малого бизнеса и семейного предпринимательства, расширению сферы услуг, адаптации профессиональных навыков к требованиям рынка труда и созданию новых источников дохода для сельского населения.

Ключевые слова: сельская местность, благосостояние населения, занятость, доходы населения, рынок труда, малый бизнес, семейное предпринимательство, сфера услуг, Бухарская область.

Abstract. This article examines the key directions for improving the welfare of the rural population and ensuring employment using the Bukhara region as a case study. The study aims to assess the current state of employment and income generation among the rural population and to identify effective measures for improving their living standards. Statistical-economic, dynamic and comparative analysis methods, as well as a systematic approach, were employed in the research. The study examines the main factors affecting sustainable employment and income growth in rural areas and proposes measures to develop small businesses and family entrepreneurship, expand the service sector, align professional skills with labor market requirements, and create new sources of income for the rural population.

Keywords: rural areas, population welfare, employment, household income, labor market, small business, family entrepreneurship, service sector, Bukhara region.

KIRISH

Bugungi kunda qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash, barqaror bandlikni ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qishloq aholisining munosib turmush darajasini ta'minlash nafaqat mavjud ish





o'rinlarini ko'paytirish, balki mehnat resurslaridan samarali foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xizmatlar sohasini kengaytirish hamda aholi daromadlarining barqaror manbalarini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

O'zbekistonda so'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'qitish hamda hududlarda yangi daromad manbalarini yaratishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholini daromadli mehnat faoliyatiga jalb etish va mahalliy iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib yangi ish o'rinlarini yaratish hududiy rivojlanish siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Buxoro viloyatining qishloq hududlarida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoat, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, oilaviy tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish uchun muayyan imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, qishloq aholisining barqaror bandligini ta'minlash, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, mehnat bozorida talab qilinadigan kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog'liq masalalar mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Buxoro viloyati misolida qishloq joylarida aholi turmush farovonligi va bandligining mavjud holatini tahlil qilish hamda ularni yaxshilash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti. Buxoro viloyatining qishloq hududlarida yashovchi aholi va ularning bandlik jarayonlari.

Tadqiqot predmeti. Qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash, bandligini ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta'minlash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromadlari, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bilan o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Aholining barqaror daromad manbalariga ega bo'lishi va iqtisodiy faolligining oshishi turmush darajasini yaxshilashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Buxoro viloyatida aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish omillarini o'rgangan tadqiqotlarda kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan[20]. Hududning aholi va mehnat resurslari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa bandlik tendensiyalari, mehnat resurslaridan foydalanishdagi mavjud muammolar hamda istiqboldagi imkoniyatlar tahlil qilingan.





So'nggi tadqiqotlarda kichik biznes rivojlanishi bilan aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikka ham alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Buxoro viloyatining 11 ta tumani bo'yicha 2019–2024-yillar ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan tadqiqotda kichik biznes subyektlari sonining ko'payishi, bandlik darajasining oshishi va aholi jon boshiga daromadlarning o'sishi kambag'allik darajasining pasayishi bilan statistik jihatdan bog'liqligi aniqlangan[1].

Tahlil qilingan tadqiqotlarda aholi farovonligi, kambag'allik, mehnat resurslari va kichik biznesning hududiy rivojlanishga ta'siri keng yoritilgan. Biroq Buxoro viloyatining aynan qishloq joylarida aholi bandligi, daromad manbalari va turmush farovonligini oshirish imkoniyatlarini o'zaro bog'liqlikda baholash hamda hududlarning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib amaliy yo'nalishlarni belgilash masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Mazkur jihat ushbu tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilaydi[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Buxoro viloyati qishloq joylarida aholi turmush farovonligi va bandligining mavjud holatini baholash uchun statistik-iqtisodiy tahlil, dinamik tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari hamda mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyatining qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash, eng avvalo, barqaror bandlikni ta'minlash va daromad manbalarini kengaytirish bilan uzviy bog'liq. Qishloq aholisining bandligi an'anaviy ravishda qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda bandlikni faqat mazkur tarmoq hisobidan ta'minlash yetarli emas. Shu sababli hududlarda kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish faoliyatini kengaytirish qishloq aholisining daromad manbalarini diversifikatsiya qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Qishloq joylarida bandlikni oshirishda yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bir qatorda, mavjud mehnat resurslarining kasbiy salohiyatini mehnat bozori talablariga moslashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularning iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish aholi daromadlarining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Bunda har bir hududning mavjud iqtisodiy resurslari va ixtisoslashuv imkoniyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Aholi turmush farovonligini baholashda faqat bandlik darajasining o'zi yetarli ko'rsatkich hisoblanmaydi. Bandlikning barqarorligi, mehnatdan olinadigan daromad, aholi jon boshiga daromadlarning o'sishi hamda daromad manbalarining diversifikatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qishloq hududlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi faoliyat turlarini





rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va xizmatlar sohasini kengaytirish bandlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Buxoro viloyatining qishloq joylarida aholi farovonligi va bandligini yaxshilashda hududiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasbiy tayyorgarlik tizimini mehnat bozori bilan uyg'unlashtirish, xizmatlar va qayta ishlash sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalishlarning o'zaro uyg'un amalga oshirilishi qishloq aholisining iqtisodiy faolligini oshirish va turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlillar Buxoro viloyatida aholi turmush farovonligini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmida ijobiy o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Aholi daromadlarining oshishi iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish, turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Buxoro viloyatida aholi farovonligining o'zgarishini baholashda 2020–2025-yillardagi aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi tahlil qilindi.

1-jadval

Buxoro viloyatida aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi, 2020–2025-yillar

Yillar	Aholi jon boshiga umumiy daromad, ming so'm	O'sish sur'ati, %
2020	15 755,4	111,3
2021	19 420,7	123,3
2022	22 848,0	117,6
2023	25 341,6	110,9
2024	29 918,8	118,1
2025	35 176,2	117,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Buxoro viloyatida aholi jon boshiga umumiy daromadlar 2020-yildagi 15 755,4 ming so'mdan 2025-yilda 35 176,2 ming so'mga yetgan. Natijada mazkur ko'rsatkich besh yil davomida qariyb 2,23 baravarga oshgan. Eng yuqori yillik nominal o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatilib, 123,3 foizni tashkil etgan. 2025-yilda esa aholi jon boshiga umumiy daromad 2024-yilga nisbatan 17,6 foizga oshgan.

Shu bilan birga, nominal daromadlarning oshishini aholi real farovonligining o'zgarishi bilan aynan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas. Narxlar o'zgarishini hisobga oluvchi real daromad ko'rsatkichi bo'yicha ham Buxoro viloyatida o'sish kuzatilgan: aholi jon boshiga real umumiy daromad 2020-yildagi 13 870,4 ming so'mdan 2025-yilda 32 322,2 ming so'mga yetgan[3].

Bu holat hududda aholi daromadlarini oshirish bo'yicha ijobiy tendensiya mavjudligini ko'rsatadi, biroq qishloq joylarida turmush farovonligini yanada yaxshilash barqaror bandlikni kengaytirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish bilan bevosita bog'liq[4].





Qishloq joylarida aholi farovonligini oshirishda mehnat resurslarining iqtisodiy faolligi va ularni samarali band qilish alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan Buxoro viloyatining qishloq joylarida iqtisodiy faol aholi sonining o'zgarishi tahlil qilindi.

2-jadval

Buxoro viloyatining qishloq joylarida iqtisodiy faol aholi soni dinamikasi, 2020–2025-yillar

Yillar	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	Oldingi yilga nisbatan o'zgarish, ming kishi
2020	544,2	–
2021	543,8	–0,4
2022	549,8	+6,0
2023	553,4	+3,6
2024	539,5	–13,9
2025	558,5	+19,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro viloyatining qishloq joylarida iqtisodiy faol aholi soni 2020-yildagi 544,2 ming kishidan 2025-yilda 558,5 ming kishiga yetgan. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda mazkur ko'rsatkich 14,3 ming kishiga yoki qariyb 2,6 foizga oshgan. Shu bilan birga, yillar bo'yicha dinamika bir tekis kechmagan: 2024-yilda iqtisodiy faol aholi soni 539,5 ming kishigacha kamaygan bo'lsa, 2025-yilda 558,5 ming kishiga yetib, oldingi yilga nisbatan 19 ming kishiga ko'paygan.

Mazkur holat qishloq hududlarida mehnat bozoriga kirib kelayotgan aholini barqaror va daromadli ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. Bunda faqat qishloq xo'jaligida bandlikni kengaytirish emas, balki qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik orqali bandlik tarkibini diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi. Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida bandlar sonining 2020-yildagi 250,3 ming kishidan 2025-yilda 184,3 ming kishiga kamaygani ham boshqa iqtisodiy faoliyat yo'nalishlarida yangi ish o'rinlarini kengaytirish zaruratini kuchaytiradi[6].

Shuningdek, kichik tadbirkorlikning bandlikni ta'minlashdagi o'rni yuqori bo'lib qolmoqda. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2020-yilda 590,5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 629,5 ming kishiga yetgan. Ushbu tendensiyalar qishloq hududlarida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, xizmatlar va qayta ishlash faoliyatini rivojlantirish aholi bandligi va daromad manbalarini kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qishloq joylarida aholi turmush farovonligini yaxshilash va bandligini ta'minlash hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o'sishi bilan bir qatorda, qishloq hududlarida iqtisodiy faol aholini barqaror va daromadli ish





o'rinlari bilan ta'minlash masalasi dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida bandlik tarkibining o'zgarishi esa qishloq joylarida iqtisodiy faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish va qishloq xo'jaligidan tashqari bandlik imkoniyatlarini kengaytirishni talab etadi.

Buxoro viloyatining qishloq hududlarida aholi farovonligini yanada yaxshilash uchun kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kasb-hunarga o'qitish tizimini hududiy mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy kasbiy va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda aholi uchun barqaror daromad manbalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishlarning kompleks amalga oshirilishi qishloq aholisining bandligini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va uzoq muddatda turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tuxtamuratova D. Buxoro viloyati aholisi va mehnat resurslari: tendensiyalar va istiqbollar // Markaziy Osiyo ko'p tarmoqli tadqiqotlar va menejment tadqiqotlari jurnali. – 2025. – J. 2, №7. – B. 39–42.
2. Nazarov Sh.I. Analysis of the Interrelationship Between Small Business Activities and Poverty Levels in Regional Districts // Iqtisodiyot va turizm. – 2026. – №1 (27).
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida). – 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida). – 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Iqtisodiy faol aholi soni (qishloq). Buxoro viloyati bo'yicha 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi. Buxoro viloyati bo'yicha 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni. Buxoro viloyati bo'yicha 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – [Lex.uz](https://lex.uz).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-sonli “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – [Lex.uz](https://lex.uz).
10. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O'RQ–642-sonli “Aholi bandligi to'g'risida”gi Qonuni. – [Lex.uz](https://lex.uz).





11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekistonda mehnat va bandlik: statistik to'plam. – Toshkent: Statistika agentligi, 2024.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. – Toshkent, 2024. – Stat.uz.
13. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati: statistik axborotnoma. – Buxoro, 2024. – Buxstat.uz.
14. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
15. World Bank. Uzbekistan: Toward a Prosperous and Inclusive Future. Country Economic Memorandum. – Washington, DC: World Bank, 2022. – World Bank.
16. World Bank. Uzbekistan Poverty Assessment: Reducing Poverty and Investing in People. – Washington, DC: World Bank, 2024.
17. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. – Geneva: ILO, 2024. – ILO.
18. United Nations Development Programme. Multidimensional Poverty in Uzbekistan: Evidence, Policy and Prospects. – Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2023. – UNDP Uzbekistan.
19. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. 13th ed. – Harlow: Pearson Education, 2020. – 896 p.
20. Аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини ошириш омиллари (Бухоро вилояти мисолида) // *Общество и инновации*. – 2021.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy